



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

No. 2

MA'NAViy-MA'RIFIY ISHLARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA INNOVATSION MEZONLAR VA INDIKATORLAR

O'rinov O'tkirbek Nodir o'g'li, BuxDPI, "Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari)" mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyat ma'naviy taraqqiyotini ta'minlashda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Maqolada sohani raqamlashtirish va modernizatsiya qilish sharoitida qo'llanilishi lozim bo'lgan innovatsion mezonlar va sifat-miqdor indikatorlari tizimi taklif etilgan. Tadqiqotda ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar natijadorligini aniq o'lchash, ijtimoiy soha samaradorligini monitoring qilishning pedagogik-psixologik jihatlari yoritilgan. Ishlab chiqilgan indikatorlar yoshlar ma'naviyatini shakllantirish darajasini va targ'ibot tadbirlarining real ta'sirchanligini obyektiv baholash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: ma'naviy-ma'rifiy ishlar, innovatsion mezonlar, samaradorlik indikatorlari, monitoring, ma'naviy taraqqiyot, ijtimoiy samaradorlik

ИННОВАЦИОННЫЕ КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДУХОВНОЙ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ

Уринов Уткирбек Нодир угли, БухДПИ, студент 1-го курса магистратуры по специальности "Методология преподавания социально-гуманитарных дисциплин (основы духовности)"

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы совершенствования системы оценки эффективности духовно-воспитательной работы в обеспечении духовного развития общества. Предлагается система инновационных критериев и качественных и количественных показателей, которые следует использовать в контексте цифровизации и модернизации сектора. Исследование охватывает педагогические и психологические аспекты точного измерения эффективности духовно-воспитательных процессов и мониторинга эффективности социальной сферы. Разработанные показатели позволяют объективно оценить уровень формирования духовности молодежи и реальную эффективность пропагандистской деятельности.

Ключевые слова: духовно-воспитательная работа, инновационные критерии, показатели эффективности, мониторинг, духовное развитие, социальная эффективность

INNOVATIVE CRITERIA AND INDICATORS IN ASSESSING THE EFFECTIVENESS OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK

O'rinov O'tkirbek Nodir o'g'li, BukhDPI, 1st year master's student in the specialty "Methodology of teaching social and humanitarian subjects (fundamentals of spirituality)"

Abstract: This article analyzes the issues of improving the system for assessing the effectiveness of spiritual and educational work in ensuring the spiritual development of society. The article proposes a system of innovative criteria and qualitative and quantitative indicators that should be used in the context of digitalization and modernization of the sector. The study covers the pedagogical and psychological aspects of accurately measuring the effectiveness of spiritual and educational processes and monitoring the effectiveness of the social sphere. The developed indicators allow for an objective assessment of the level of formation of youth spirituality and the real effectiveness of promotional activities.

Keywords: spiritual and educational work, innovative criteria, indicators of effectiveness, monitoring, spiritual development, social effectiveness

KIRISH

Bugungi global transformatsiyalar, axborot makonining shiddatli kengayishi va raqamli jamiyat shakllanishi sharoitida inson kapitali, xususan, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish davlat siyosatining strategik ustuvor yo'nalishiga aylandi. O'zbekistonda yangi uyg'onish davri — Uchinchi Renessans poydevorini yaratishning tub asosi ham aynan yuksak ma'naviyat va ma'rifat bilan uzviy bog'liqdir. Biroq, bugungi kun voqeligi ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini an'anaviy, formal va faqatgina hisobotbozlikka asoslangan usullarda tashkil etish o'z samarasini yo'qotganini ko'rsatmoqda. Endilikda ushbu tizimni tubdan modernizatsiya qilish, unga innovatsion va texnologik yondashuvlarni joriy etish talab etilmoqda.

Ushbu jarayondagi eng dolzarb va yechimini kutayotgan muammolardan biri — amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning real natijadorligini, ularning jamiyat va yoshlar ongiga ta'sir

darajasini obyektiv baholash mexanizmining mavjud emasligidir. Ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini, yoshlarning mediasavodxonligi va mafkuraviy immunitetini shunchaki miqdoriy ko‘rsatkichlar (tadbirlar soni, qatnashchilar auditoriyasi) bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Shu bois, sohadagi tub burilishlarni ta’minlash va boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirish uchun aniq sifat-miqdor indikatorlari hamda innovatsion mezonlarni ishlab chiqish zarurati ushbu maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida baholash va uning mezonlarini ishlab chiqish masalasi uzoq yillardan buyon falsafiy, sotsiologik va pedagogik tadqiqotlarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Xususan, g‘arb ilmiy maktablarida ijtimoiy dasturlar va ma’naviy-axloqiy tarbiya samaradorligini baholashda KPI (Key Performance Indicators) tizimi, integratsiyalashgan monitoring hamda sotsiologik keng qo‘llaniladi. J. Helliwell va R. Putnam kabi olimlarning tadqiqotlarida jamiyatning ma’naviy barqarorligi va qadriyatlar tizimi miqdoriy ko‘rsatkichlar orqali sotsiologik tahlil qilingan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) olimlaridan V.A. Slastenin, I.F. Isaevlar pedagogik tizimlarning samaradorligini baholashda sifat va miqdor ko‘rsatkichlarining mutanosibligini asoslab berganlar. Ularning fikricha, tarbiyaviy ishlar natijasini faqatgina tadbirlar soni bilan emas, shaxs xulq-atvoridagi ijobiy o‘zgarishlar dinamikasi bilan o‘lchash lozim.

Respublikamizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish, milliy qadriyatlarni tiklash va yoshlar tarbiyasi masalalari falsafiy va pedagogik jihatdan keng o‘rganilgan. Biroq, shiddatli raqamlashtirish sharoitida ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibotning real natijadorligini baholash metodologiyasi alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan. Aksariyat amaldagi metodikalar hali ham formal-statistik (miqdoriy) yondashuvga asoslangan bo‘lib, jarayonning sifat o‘zgarishlarini (mafkuraviy immunitet shakllanganligi, axborotni filtrlash qobiliyati va h.k.) qamrab olmaydi. Bu esa sohada innovatsion mezonlar va indikatorlar tizimini yaratishni taqozo etadi.

Tadqiqot jarayonida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini baholash tizimini shakllantirish uchun tizimli yondashuv, komprativ tahlil, sotsiologik va pedagogik diagnostika ilmiy-metodologik usullar majmuasidan foydalanildi.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

O‘tkazilgan tadqiqotlar va amaldagi ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimi tahlili shuni ko‘rsatdiki, sohadagi eng zaif nuqta — natijadorlikni faqatgina miqdoriy ko‘rsatkichlar (tadbirlar soni, qamrab olingan yoshlar hajmi) orqali baholash xarakteridir. Ushbu an’anaviy yondashuv o‘tkazilgan tadbirlarning tinglovchi ongiga qay darajada ta’sir qilganini, ularning dunyoqarashi va xulq-atvorida qanday ijobiy o‘zgarishlar yasaganini aniqlash imkonini bermaydi.

Tadqiqotimiz doirasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini obyektiv va tizimli baholash imkonini beruvchi, **KPI (Key Performance Indicators)** prinsiplariga asoslangan **“4 komponentli innovatsion mezonlar va indikatorlar tizimi”** ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etish tavsiya qilindi.

Ushbu tizim ma’naviy rivojlanishni shunchaki mavhum tushunchadan o‘lchanadigan va monitoring qilinadigan tizimli ko‘rsatkichlarga o‘tkazishga xizmat qiladi.

“4 komponentli innovatsion mezonlar va indikatorlar tizimi” quyidagi 4 indikatoridan iborat:

1.Kognitiv-intellektual indikator. Bu indikator yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy tadbirlardan keyin olgan bilimlari, milliy tarix, qadriyatlar va huquqiy savodxonlik darajasining o‘sinh dinamikasini o‘lchaydi. Tadbirlardan oldin va keyin o‘tkaziladigan interaktiv (geymifikatsiya elementlariga ega) ekspress-testlar hamda keys-stadi (muammoli vaziyatlar) metodikasi orqali tahlil qilinadi.

2.Mediasavodxonlik va mafkuraviy immunitet indikator. Bugungi axborot urushlari davrida eng muhim mezonlardan biridir. U yoshlarning internet makonidagi axborot xurujlariga qarshi tura olish, manipulyatsiyalarni payqash hamda ishonchli va ishonchsiz axborotni farqlash qobiliyatini aniqlaydi. Feyk (yolg‘on) xabarlar, manipulyativ postlar va dezinformatsiyalar kiritilgan maxsus diagnostik test-platformalar orqali yoshlarning axborotni filtrlash ko‘nikmalari sinovdan o‘tkaziladi. Sifat ko‘rsatkichi yoshlarning axborotni tekshirish (fact-checking) ko‘nikmasini o‘zlashtirganlik darajasiga qarab 3 ta darajada (yuqori, o‘rta, past) baholanadi.

3.Ijtimoiy xulq-atvor indikator. Ma’naviyat faqat quruq bilim emas, u amalda aks etishi shart. Ushbu indikator ma’naviy-ma’rifiy ishlarning shaxs xulq-atvoriga ta’sirini baholaydi. Yoshlarning volontyorlik (ko‘ngillilik) harakatlaridagi ishtiroki, kitobxonlik darajasi, huquqbuzarliklar dinamikasining kamayishi, mahalladagi ijtimoiy loyihalarda qatnashish faolligi. Bu ko‘rsatkich hududiy yoshlar yetakchilari va

ta'lim muassasalari platformalaridagi yagona elektron reyting tizimi orqali integratsiya qilinadi.

4. Ijtimoiy rezonans va raqamli aks-sado indikator. Zamonaviy raqamli muhitda ma'naviy targ'ibot materiallarining (video, maqola, infografika, postlar) ijtimoiy tarmoqlardagi va yoshlar ongida qoldirgan rezonansini baholaydi. Shunchaki “ko‘rishlar soni” (views) emas, balki “faollik indeksi” (Engagement Rate) o‘lchanadi. Bunda material ostidagi ijobiy/salbiy izohlar (sentiment analysis — emotsional tahlil), bo‘lishishlar (shares) soni va yoshlarning ushbu mavzuda o‘z fikrlarini yozib qoldirish ko‘rsatkichlari sun‘iy intellekt algoritmlari yordamida tahlil qilinadi.

Taklif etilayotgan 4 komponentli innovatsion baholash modelini ilmiy-nazariy va ijtimoiy-pedagogik jihatdan chuqurroq tahlil qilish, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni boshqarishda tub burilish yasash imkonini beradi. Mazkur modelning ilmiy paradigmasi shundan iboratki, u ma'naviy yuksalish fenomenini an'anaviy mavhumlik qobig'idan olib chiqib, uni ijtimoiy metrologiya (ijtimoiy hodisalarni o'lchash fanlari) talablariga moslashtiradi.

Ayniqsa, mediasavodxonlik va mafkuraviy immunitet indikatorining kiritilishi bugungi globallashuv va sun‘iy intellekt asrida favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, zamonaviy yoshlar axborotni asosan virtual makondan olmoqda. Shuning uchun ham ma'naviy targ'ibot ishlarining kuchi endilikda qog'ozdagi hisobotlar bilan emas, balki yoshlarning internetdagi feyk (yolg'on) xabarlarini filtrlash hamda mafkuraviy manipulyatsiyalarni vaqtida payqash darajasi bilan o'lchanishi ilmiy jihatdan qat'iy asoslangan.

Ushbu metodologiyani amaliyotga joriy etishda ma'lum bir qiyinchiliklar va ilmiy disputlar yuzaga kelishi mumkinligini ham inkor etib bo'lmaydi. Xususan, So'rovnomalar yoki ekspress-testlar jarayonida respondentlarning (yoshlarning) vaziyatga moslashib, sun‘iy ravishda "yaxshi" javob berishga urinishi (ijtimoiy ma'qullanish effekti). Buni bartaraf etish uchun an'anaviy savollar o'rniga psixologik keys-stadi (muammoli hayotiy vaziyatlar) usulidan foydalanish va javoblarni avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qilish lozim.

Shunga qaramay, taklif qilinayotgan model amaldagi statistik tizim bilan solishtirilganda mutlaqo progressiv xarakterga ega. U ma'naviy-ma'rifiy sohadagi subyektiv baholash tamoyilidan voz kechib, jarayonning sifat o'zgarishlarini matematik-pedagogik modellashtirish orqali prognozlash imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida Uchinchi Renessans davrida milliy g'oya va ma'naviy taraqqiyot strategiyasining ilmiy va amaliy jihatdan mukammal boshqarilishini ta'minlaydi.

XULOSA

Jamiyat ma'naviy taraqqiyotini ta'minlashda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning o'rni beqiyos, biroq ularning samaradorligini an'anaviy, formal-statistik usullarda baholash bugungi raqamli jamiyat talablariga javob bermay qo'ydi. Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan ilmiy-nazariy tahlillar va ishlab chiqilgan modellar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat natijadorligini faqatgina tadbirlar soni yoki qamrov hajmi kabi miqdoriy ko'rsatkichlar bilan o'lchash tizimning real ta'sirchanligini aks ettirmaydi va sohada “hisobotbozlik” illatining saqlanib qolishiga sabab bo'ladi.
2. Tadqiqotda taklif etilgan **4 komponentli innovatsion mezon va indikatorlar tizimi** ma'naviy rivojlanish jarayonini mavhumlikdan o'lchanadigan va monitoring qilinadigan tizimli ko'rsatkichlar bosqichiga olib chiqadi.
3. Ishlab chiqilgan integral ko'rsatkich modeli va uning matematik-pedagogik asoslari yoshlarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning global tarmoqdagi mafkuraviy immuniteti (feyklarni filtrlash qobiliyati), ijtimoiy faolligi va raqamli aks-sadosini (Feedback) ham obyektiv baholash imkonini beradi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish va baholash tizimini amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

birinchidan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda tegishli vazirliklar hamkorligida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini baholashning yagona elektron reyting platformasi (KPI-tizimi)ni yaratish. Ushbu platformada har bir tuman, mahalla va ta'lim muassasasining ma'naviy ko'rsatkichlari dinamikada vizuallashtirib borilishi lozim.

ikkinchidan, umumta'lim maktablari (xususan, 5-11 sinflar) va oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning kognitiv natijadorligini o'lchash uchun an'anaviy ma'ruzalardan voz kechib, geymifikatsiya (o'yinlashtirish) va keys-stadi (muammoli vaziyatlar) texnologiyalariga asoslangan ekspress-dagnostika usullarini joriy etish.

uchinchidan, yoshlarning mediasavodxonligi va axborotni filtrlash ko'nikmalarini doimiy monitoring

qilish maqsadida, ta’lim platformalarida feyk xabarlarini aniqlash bo’yicha interaktiv test-simulyatorlarini ishga tushirish hamda ushbu ko’rsatkichlarni indikatorining asosi sifatida qabul qilish.

to’rtinchidan, raqamli muhitda ma’naviy targ’ibot materiallarining ijtimoiy ta’sirini (rezonansini) baholash uchun sun’iy intellekt elementlaridan foydalangan holda “Sentiment analysis” (fikr-mulohazalar tonaligini emotsional tahlil qilish) tizimini yo’lga qo’yish. Bu targ’ibot kontentining yoshlar auditoriyasiga qay darajada ma’qul bo’layotganini aniq ko’rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-5040-sonli Qarori.
- 2.Bourdieu, P. Forms of Capital. In: J. Richardson (Ed.) Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. – New York, Greenwood Press, 1986. – pp. 241-258.
- 3.Coleman, J. S. Foundations of Social Theory. – Cambridge: Harvard University Press, 1990. – 993 p.
- 4.Putnam, R. D., Helliwell, J. F. Education and Social Capital. *Eastern Economic Journal*, Vol. 33, No. 1, 2007. – pp. 1-19.
- 5.Quronov M. Milliy tarbiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020. – 288 b.
- 6.Toshmurodov B. Ma’naviy-ma’rifiy jarayonlar samaradorligini baholashda sotsiologik monitoring va KPI tizimi. *Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar*, jild 6, son 2, 2023. – 14-22-b.
- 7.Yusupov E. Yoshlar mafkuraviy immuniteti va mediasavodxonligini shakllantirishning diagnostik mezonlari. *Ta’lim, fan va innovatsiya*, №4, 2024. – 89-94-b.

Hamroyev Saidjon Sanoyevich, Abdullayeva Yulduz Nabiyeвна , Jamiyatda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy standartlari	284
Erkinov Ozodbek Aminovich , Huquqiy va ijtimoiy davlatning nazariy asoslari hamda uning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	289
Hayitmurodov Musulmon Sunnat o'g'li , Huquqiy ong va madaniyat – qonun ustuvorligining poydevori	295
Yo'ldosheva Odinaxon Dilmurodjon qizi , O'zbekistonda mehnat huquqining buzilishi: Holat va istiqbol	299
Temirova Asila Sodiqovna , Zamonaviy fan taraqqiyotida huquq ta'limini rivojlantirish tendensiyalari	302
Ergashova Nargiza, Jamolova Tamara Normatovna , Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi	307
Sulaymonbekov Suhaylbek Sobirbek o'g'li , Professional ta'lim oluvchilarning huquqiy kompetensiyalarini shakllantirishda huquqiy targ'ibotni tashkil etishning pedagogik mexanizmlari (iiv buxoro akademik litseyi misolida)	311
Hikmatov Sunnatillo Hafiz o'g'li , Yoshlarda media immunitetni shakllantirishning nazariy va ilmiy asoslari	318
Каримов Джамшид Тулкин Угли , Идеи гуманизма и нравственности в наследии Абдурахмона Джами	322
O'rinov O'tkirbek Nodir o'g'li , Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini baholashda innovatsion mezonlar va indikatorlar	326

Aniq va tabiiy fanlar

To'xtayeva Ferangis Furqat qizi , Muhandislik grafikasi fanida elektron o'quv qo'llanma yaratishda 3d geogebra dan foydalanish	330
Choriyeva Nilufar Akram qizi , Fizik tafakkurni rivojlantirishda multimedia vositalaridan foydalanish usullari	334
Dilnoza Irkinovna Dadaboeva , Kelajak muhandislar uchun cad va 3d vizualizatsiyalaridan foydalangan professional grafik tayyorlashning innovatsion usulini ishlab chiqish va tajribada sinab ko'rish	340
Hasanov Behzod Normurot o'g'li, Hamroyeva Dilnoza Tohir qizi , Informatika ta'limida multimedia vositalaridan foydalanish bo'yicha xorijiy va milliy pedagogik tajribalar tahlil	349
Jo'rayev Ihom Is'hoqovich , Mobil texnologiyalar tarixi, rivojlanishi va istiqbollari	354
Rakhmat Sindarov , Research of the methodology for the development and implementation of a teaching and methodological complex for graphic training	360
To'xtayeva Ferangis Furqat qizi , Elektron o'quv qo'llanmalar yaratishda Fliktop platformasidan foydalanishning metodik asoslari	366
Ergashov Mansur Yarashovich, Raxmatilloeva Shahzoda Hikmat qizi , “Azotning kislorodli birikmalari” mavzusini o'qitishda eksperimental yondashuv asosida o'quvchilarning kreativ kompetensiyasini shakllantirish	370